

O'ZBEK TILI VA FRANSUZ TILIDA GAP TUZILISHINING FARQLARI

Xurramova Farangiz Xoshimjon qizi*Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german fakulteti Fransuz tili
filologiyasi kafedrasining 1- bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Fransuz tili va o'zbek tili turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning gap tuzilishi sezilarli darajada farq qiladi. O'zbek tili agglutinatív (qo'shimcha orqali so'z shakllantiruvchi) til bo'lsa, fransuz tili flektiv (so'zlarning shakli grammatik vazifasiga qarab o'zgaruvchi) til hisoblanadi. Ushbu maqolada mana shu ikki tilning gap tuzilishi qiyosiy tahlil qilinib, so'z tartibi, fe'lining roli, sintaktik tuzilma va jummalarning bog'lanish usullari o'rganilgan. O'zbek tilida gap tartibi SOV (Subyekt- Obyekt- fe'l) bo'lsa, fransuz tilida esa, SVO (Subyekt- Fe'l- Obyekt) mana shunday tartibda tuziladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida fe'l zamon va shaxs qo'shimchalari orqali ifodalansa, fransuz tilida yordamchi fe'llar va zamon shakllari yordamida ifodalanadi. Shuningdek, so'z birikmalarining tuzilishi, inkor gaplarning hosil bo'lishi, savol va murakkab gaplarning tarkibi kabi jihatlar ham farq qiladi. Mazkur maqolada ushbu farqlar lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning o'zbek tilida fransuz tilini o'rganish jarayoniga ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tillar oilasi, guruh, bog'lanish, til, usullar, qo'shimchalar, gap bo'laklari, fransuz tili , o'zbek tili, ega , kesim , bosh bo'laklar, fe'l , ko'makchi fe'l, qo'shimchalar,*

Tillar oilasi- kelib chiqishi jihatidan o'zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksik grammatik xususiyatlariga ko'ra o'xshash tillar majmui. Har bir tillar oilasi bir necha o'nlab tillarni o'z ichiga oladi va ular o'z navbatida, bir- biriga yaqinligiga qarab, tarmoqlarga (shoxobchalarga) bo'linadi. Tarmoqlardagi tillarning o'zaro yaqinligi ham bir xil bo'lmaydi. Shunga ko'ra, ular guruhlariga, guruhlar esa guruhchalarga bo'linib, tasnif va tavsif etiladi. Masalan, o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, tuva, tatar, boshqird, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, Chuvash singari 20 dan ortiq til turkiy tillar oilasini tashkil etadi. Fransuz tili- hind yevropa tillari oilasining roman guruhiga mansub til.

O'zbek tilida so'zning yasallishining, asosan 2 ta usuli mavjud:

1. Affiksall (morfologik) usul – so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z hosil qilinadi.

Misollar:

*kitob + xon > kitobxon

*yosh + lar > yoshlar

2. Qo'shilish (kompozitsiya) usuli – ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi so'z hosil qilinadi.

Misollar:

*mehnat + sevar > mehnatsevar

*tosh + baqa > toshbaqa

Fransuz tilida 4 ta asosiy usul orqali yasaladi.

1. Dérivation (Affiksial usul) – qo‘shimchalar (prefixes, suffixes, infixes) qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish.

Misollar:

*heure (soat) >

horaire (jadval, vaqt belgilash)

*content (mamnun) >

mécontent (norozilik bildiruvchi)

2. Composition (Qo‘shilish usuli) – ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilishi orqali yangi so‘zni hosil qilish.

Misollar:

*porte (eshik) +

feuille (yaproq) >

portefeuille (hamyon, hujjatlar uchun jild)

*garde (qo‘riqlash) +

robe (kiyim) >

garde-robe (kiyim – javoni)

3. Troncation (Qisqarish usuli) – So‘zning qisqartirilishi orqali yangi so‘z hosil qilish.

Misollar:

*cinématographe > cinema

*television > télé

4. Siglaison (Qisqartmalar hosil qilish) – iboralar yoki birikmalarning qisqartmalari orqali yangi so‘z hosil qilish.

Misollar:

*SNCF (Société Nationale des Chemins de fer Français)

*OVNI (Objet Volant Non Identifié – (noma‘lum uchuvchi jism))

O‘zbek va fransuz tilida ya‘ni har ikkalasida ham gap bo‘laklarining soni bir xil. Ular, ega, kesim, hol, aniqllovchi, to‘ldiruvchi bo‘lib, mana shu gap bo‘laklari bir-biriga taqqoslansa, ularning o‘xshashliklarini emas, balki o‘rtasigi tafovutni ko‘rish mumkin. O‘zbek tili va fransuz tilida ham gap bo‘laklarining tartibi muhim o‘ringa ega. O‘zbek tilda gap bo‘laklarining gapning tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba‘zi gap bo‘laklari gapning qurilishida markaziy o‘rinni egallaydi. Ayrim gap bo‘laklar esa gapni qurilishida asosiy rol o‘ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo‘laklar orqali fikr anglashilaveradi. O‘zbek tilida gap bo‘laklari ikki turga bo‘linadi: Jumladan; Bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar. Bosh bo‘laklar o‘zini ichiga ega va kesimni oladi. Ikkinchi darajali bo‘laklarga esa aniqllovchi, to‘ldiruvchi, hol shu kabilar kiradi. O‘zbek tilida kesim gapning ma‘no anglatuvchi qismi sifatida qaraladi. Ba‘zi hollarda kesimni o‘zidan muloqot manbai sifatida foydalanish mumkin. Bunga qo‘shimcha tarzda, gap bo‘laklarining yakka holda qo‘llanilishi nafaqat kesim doirasida balki, boshqa bo‘laklarda ham kuzatiladi. Bunday holat nutqimizda og‘zaki hamda yozma holda ishlatiladi. So‘zlashuv uslubida ham, yozuvchilar tomonidan

asar qahramonlarining nutqi ta'sirliroq bo'lishi uchun badiiy uslubdan foydalanganligini ko'ramiz.

Masalan: Dinora taom tayyorladi. U har doim pirok tayyorlaydi.

Dinora prepare le repas. Elle toujours prepare du gateau.

Fransuz tilida asosan, ega odatda kesimning oldidan qo'llanilib, que (nima?), qui (kim?) so'roqlariga javob bo'ladi. Fransuz tilida ega (sujet) gapning bosh bo'laklaridan biri hisoblanadi. Kesim ham gapning bosh bo'lagi hisoblanadi. O'zbek tilidan asosiy farqlanadigan holati, kesim odatda egadan keyin keladi va ko'pincha shaxs formasida bo'lgan fe'l orqali ifodalanadi. O'zbek tili kabi fransuz tilida ham kesimlar ikki xil bo'ladi. Bular: fe'l kesim (predicat verbal) , ot kesim (predicat nominal) kabi turlarga bo'linadi.

Masalan: Nous parlons anglaise. (predicat verbal).

Har bir tilning o'ziga xos so'z tuzilishi va fe'llar tizimi bor. Fe'l – harakatni bildiruvchi so'zlar turkumi vas hu turkumga oid har bir so'z. Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1.Harakat fe'llari

2.Holat fe'llari

Fransuz tili va o'zbek tilida fe'llarning roli katta ahamiyatga ega va bu jihatdan bir-biriga monand keladi: ular ish – harakatni , holatni , munosabatni anglatadi. Mustaqil va ko'makchi , shaxsli va shaxssiz , o'timli va o'timsiz kabi fe'l leksik grammatik guruhlarga ajratiladi. Fransuz tilida ham o'zbek tilida ham maxsus ko'makchi fe'llar yo'q. Fransuz tilida ko'makchi fe'llar ancha ko'p hamda gapning grammatik qurilishida katta rol o'ynaydi. Bu esa tildagi mavjud analitik tendensiya bilan uzviy bog'liq. O'zbek va fransuz tilida sintaktik qurilmalar turlicha tuzilishga ega, chunki har ikkisi ham turli til oilalariga mansub. O'zbek tilida gapni tuzilishi, so'zning tartibi erkin, lekin odatda SOV(Subyekt – Obyekt - Fe'l) tartibida qo'llaniladi.

Masalan; Men kitob o'qiyapman.

Fransuz tilida esa so'zning tartibi qat'iy bo'lib, odatda SVO (Subyekt – Fe'l – Obyekt) tarzida qo'llaniladi.

Masalan; Je lis un livre (Men kitob o'qiyapman.)

O'zbek tilida so'zning bog'lanishi bunda ko'pincha qo'shimchalar orqali bog'lanadi.

Masalan; Men maktabga bordim.

Fransuz tilida esa so'zlar old ko'makchilar va urg'uli shakllar orqali bog'lanadi.

Masalan; Je vais à l'école (Men maktabga boraman)

Fransuz tilida fe'l va vaqt shakllari fe'l zamon va shaxsga qarab flektiv o'zgaradi.

Masalan; Lire (o'qimoq) > Il lit (u o'qiydi) , Il a lu (u o'qigan)

O'zbek tilida fe'llar qo'shimchalar yordamida zamon va shaxsga mos ravishda shakllanadi.

Masalan; O'qimoq > o'qidi, o'qiyapman, o'qigan.

Fransuz tilida so'roq gaplar inversiya usulda yoki „ Est- ce que? ” orqali yasaladi.

Masalan; Tu lis un livre / Est - ce que tu lis un livre ?

O'zbek tilida esa so'roq gaplar so'z tartibi yoki so'roq yuklamalari bilan yasaladi.

Masalan; Kitob o‘qiyapsanmi?

Fransuz tilida bog‘langan gaplar bular bo‘lovchi vositalar orqali yasaladi.

Masalan; Il est venu parce qu’il voulait te voir.

O‘zbek tilida bog‘langan gaplar bular qo‘shma gaplar ko‘pincha bog‘lovchilar yoki fe‘l shakllari orqali bog‘lanadi.

Masalan; U keldi, chunki u seni ko‘rmoqchi edi.

O‘zbek tilida so‘z tartibi nisbatan erkinligi tufayli so‘z birikmalari asosan qo‘shimchalar va tartib orqali bog‘lanadi.

Fransuz tilida so‘z tartibi qat’iy bo‘lib, so‘zlar predloglar (prepositions) va kelishik shakllari orqali bog‘lanadi.

Ot + Ot

O‘zbek tilida otlar o‘zaro izofali bog‘lanadi.

Masalan; Talabani talaba + ning + kitob + i .

Maktab o‘quvchilari > maktab + o‘quv + chi + lar + i .

Fransuz tilida otlar prepozitsiyalar orqali bog‘lanadi.

Masalan; Le livre de l’étudiant (Talabani talaba)

Les élèves de l’école (Maktab o‘quvchilari)

Ot + Sifat

O‘zbek tilida sifatlar odatda otning oldidan qo‘llaniladi, ba’zi holatlarda sifat otidan keyin ham kelishi mumkin.

*Chiroyli qiz

*Yangi kitob

Fransuz tilida sifatlar ba’zan otning oldidan ba’zan esa otidan keyin qo‘llaniladi.

*Un belle fille (chiroyli qiz)> otidan oldin

*Un livre intéressant (qiziqarli kitob)> otidan keyin

Fe‘l + To‘ldiruvchi

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi fe‘ldan keyin keladi.

*Men kitobni o‘qiyapman.

*U maktabga ketdi.

To‘ldiruvchi old qo‘shimchalar yoki predloglar bilan qo‘llaniladi.

* Je lis un poem. (Men she’rni o‘qiyapman.)

* Il allé à l’école.(U maktabga ketdi.)

Ayrim fe‘llar à yoki de bilan qo‘llaniladi.

*Il pense à toi (U seni o‘ylaydi.)

*Je rêve de succès. (Men muvaffaqiyat haqida orzu qilaman.)

Fe‘l + Fe‘l

O‘zbek tilida fe‘llar odatda yordamchi fe‘llar yoki shakllar bilan bog‘lanadi.

*Men kitob o‘qimoqchiman.

*U ishga borib keldi.

Fransuz tilida ikkinchi fe‘l infinitiv shaklda bo‘ladi.

*Je veux lire un livre. (Men kitob o‘qimoqchiman .)

* Il est parti travailler. (U ishlashga ketdi.)

So‘roq so‘zlar bilam bog‘lanish;

*O‘zbek tilida izofa va qo‘shimchalar asosiy bog‘lovchi vosita hisoblanadi.

*Fransuz tilda esa predloglar va qat‘iy so‘z tartibi asosiy ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida inkor gaplarning hosil bo‘lishi quyidagicha;

*emas > yordamchi so‘zi orqali

Bu kitob yangi emas.

*yo‘q > so‘zi yordamida

Men bormayman.

*fe‘lning inkor shakli > yordamida

U kitob o‘qimaydi.

Fransuz tilida inkor gaplarda ne... pas yordamida hosil qilinadi.

Je ne mange pas (Men ovqat yemayapman)

Il n’est pas étudiant. (U talaba emas)

Lingvistik usulda ne ... pas inkor elementlari bo‘lib, ular fe‘lni ikki tarafdin o‘rab turadi.

Og‘zaki nutqda ba‘zan ne ... pas tushib qolishi mumkin.

Masalan; Je sais pas (Men bilmayman)

So‘roq gaplarning hosil bo‘lishi:

Ozbek tilida so‘roq gaplar quyidagi usullarda yasaladi.

*So‘roq so‘zlar yordamida;

Bu kimning kitobi?

*Savol yuklamasi orqali ;(-mi? , - chi?)

Sen keldingmi?

*So‘z tartibini o‘zgartirish orqali;

Siz fransuz tilini bilasiz? (ohang yordamida)

Fransuz tilida so‘roq gaplar 3 xil usulda hosil qilinadi.

*Ohang yordamida;

Tu parlais français? (Sen fransuz tilida gapirasanmi?)

*Est-ce que yordamida;

Est-ce que tu parles français?

*Inversiya usuli yordamida;

Parles- tu français?

Lingvistik usulda tahlil:

Est- ce que og‘zaki usulda keng qo‘llaniladi.Rasmiy uslubda inversiya ko‘proq uchraydi.

Murakkab gaplarning tarkibi o‘zbek tilida quyidagi turlarga bo‘linadi.

*Bog‘langan qo‘shma gaplar;

Men keldim va seni ko‘rdim.

*Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar;

Havo juda issiq, odamlar soyaga qochishmoqda.

*Ergash gapli murakkab gaplar;

Agar u kelsa, biz boshlaymiz.

Fransuz tilida ham murakkab gaplar 3 turga bo‘linadi.

*Coordination (bog‘langan gaplar)

Je susi venu et j’ai vu. (Men keldim va ko‘rdim.)

*Juxtaposition (bog‘lovchisiz gaplar)

Il fait chaud, les gens cherchent de l’ombre. (Havo juda issiq, odamlar soyaga qochishmoqda.

*Subordination(ergash gapli gaplar)

Si elle vient , nous commencerons.(Agar u kelsa, biz boshlaymiz.)

Lingvistik usulda tahlil;

O‘zbek tilida bog‘lovchilar orqali yoki bog‘lovchisiz murakkab gaplar hosil qilinadi.

Fransuz tilida esa vergul, bog‘lovchilar yoki ergash gap vositalari bilan bog‘lanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, o‘zbek tili va fransuz tilida sintaktik jihatidan farq qilsada, ularning gap qurilishi grammatik tamoyillari bir- biriga bog‘liq ya’ni o‘xshash. Fe‘llar tizimida ham bir- biriga uviy bog‘liq. O‘zbek tilida qo‘shimchalar yordamida shakllantirish tizimi ustuvor bo‘lsa, fransuz tilida fe‘lning turli yasaliş usullari va tuslanish usullari keng rivojlangan. Bu o‘xshashlik va farqlar ikki tilni o‘rganishda grammatik moslashuvni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadov T. O‘zbek tilida so‘z yasaliş tadviqi va rivoji xususida
2. Abdurahmonov X. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi
3. Muhiddinova X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili
4. Jo‘rayeva M. (2024).Fransuz va o‘zbek tillarida gapning bosh bo‘laklari tartibi
5. Yusupova M.(2022). Fransuz va o‘zbek tillarida fe‘l so‘z turkumining qiyosiy jihatlari.
6. Polvonova M.(2023). Fransuz va o‘zbek tillarida harakat fe‘llarining qo‘llanilish xususiyatlari.
7. Wikipedia.